

JADID ADABIYOTIDA AYOLLAR TIMSOLI

Usmonova Sevara Sultanovna

Fergana State University

English language and literature faculty, Applied English department, Phd,

Dotsent, EFL teacher

[*mahkamovasevara078@gmail.com*](mailto:mahkamovasevara078@gmail.com)

Ikromjonova Ozodaxon Murodjon qizi

English language and literature faculty, Applied English department 4th year

student

[*ikomjonovaozoda05@gmail.com*](mailto:ikomjonovaozoda05@gmail.com)

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr jamiyatidagi chirkin va qora vaziyatlar, ayollarning kamsitilishi, jamiyat va hukumat ishlaridan ayro tutilishi, huquq va manfaatlarining toptalishi, nafaqat jamiyat tomonidan, balki, o'z oila a'zari, otasi, turmush o'rtoqlari tomonidan turli bosimlarga uchragani, ta'lim hamda tarbiyadan yiroq tutilishi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *Millat, hukumat, falsafa, jadid, ziyolilar, drama, fojia, pyessa, adabiyot.*

Abstract

This article examines the ugly and black situations in society of the 20th century, discrimination against women, their exclusion from society and government affairs, the suppression of their rights and interests not only by society, but also by their own family members, fathers and spouses were subjected to various pressures, information about exclusion from education and upbringing.

Key words: *Nation, government, philosophy, jadid, intellectuals, drama, tragedy, play, literature.*

Аннотация.

В данной статье рассмотрены уродливые и черные ситуации в обществе 20 века, дискриминация женщин, исключение их из общества и государственных дел, подавление их прав и интересов не только со стороны общества, но и со стороны собственных членов семьи, отцов. , и супруги подвергались различному давлению, информации об отстранении от обучения и воспитания.

Ключевые слова: *Нация, власть, философия, современность, интеллектуалы, драма, трагедия, пьеса, литература.*

Kirish qism

“Jadid” arabcha soʻz boʻlib, “yangi” degan maʼnoni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashgʻul boʻlgan taraqqiyparvar, ilgʻor ruhdagi milliy ziyolilar tarixda “jadid” degan nomga musharraf boʻldilar. Ularning harakati esa jadidchilik deb nomlandi. Bu harakatning paydo boʻlishi bevosita oʻsha davrdagi ichki muhit hamda tashqi xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy va demokratik yangilanishlar bilan bogʻliq boʻldi.

Asosiy qism

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan va taraqqiy etgan falsafiy-estetik tafakkur yoʻnalishini asosan jadidchilik harakati belgilagan edi. XX asrlarda jamiyatda oʻta ketgan mutaassiblik, jaholat, ilmsizlik, maʼrifatsizlik avj olgan davr edi. Shoʻro hukumati bor kuch-gʻayrati bilan xalqni, millatni jaholat tomon olgʻa boshlardi. Lekin shunga qaramay yovuz niyyatli kishilar maʼrifatga qarshi chiqishdi. Maʼrifat va ilm yogʻdularini sochmoqchi boʻlgan bir qator shaxslar esa xalq, dushmani, millat hoyini aylantirilib qamoqqa ashlanar yoki ogʻir azoblarga uchor boʻlar edi. Jadidlarning falsafiy-estetik va pedagogik qarashlarining Oʻrta Osiyoda keng tarqalishi va katta ijtimoiy hodisaga aylanishida Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Choʻlpon, Abdulla Avloniy singari buyuk shaxslarning xizmati katta boʻldi. Jadid adabiyotida dramaturgiya yaʼni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida koʻzga tashlanadi. Jadid gʻoyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr sanʼatining taʼsir koʻrsatishi kuchli boʻldi. Shuning uchun ham jadid adiblarining aksariyat yirik nomayondalari oʻz ijodiy-amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bogʻliq holda olib bordilar. Jadid adabiyotida dramaturgiya yaʼni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida koʻzga tashlanadi. Jadid gʻoyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr sanʼatining taʼsir koʻrsatishi kuchli boʻldi. Shuning uchun ham jadid adiblarining aksariyat yirik nomayondalari oʻz ijodiy-amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bogʻliq holda olib bordilar.

Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari boʻlgan yirik isteʼdod egalari-jadid adibi, shoiri, dramaturgi va sanʼati arboblarni ham tarbiyaladi. Jadidshunos, taniqli olim, professor Begali Qosimovning taʼkidlashicha, ularning 1905-1917-yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda qizgʻin faoliyat koʻrsatganlari saksondan ortiq boʻlgan. Mahmudxoʻja Behbudiy (1875-1919), Sayidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Vasliy Samarqandiy (1869-1925), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Toʻlagan Xoʻjamiyorov-Tavallo (1882-1939), Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934), Avaz Oʻgʻli (1884-1919), Muhammadsharif Soʻfizoda (1869-1937), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Sadridin Ayniy (1878-1954), Abdulvohid Burxonov (1875-1934), Hamza

Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Abdulla Qodiriy (1894-1938), Abdulhamid Cho'lpon (1897-1938).

Jadid adabiyotida ayollar timsoli o'ziga xos hisoblanadi. Bunda o'sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma'rifatga, jaholat botqog'idan chiqishga qaratiladi. Xususan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida Zebi timsoli orqali oydinlashtiramiz. Zebining ilojsizligi o'sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi. Zebi-hurkak ohu kabi go'zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o'ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to'lib yotgan dunyoga muhabbat ko'zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go'zallik bilan kelishmaydi, go'dakday beg'ubor bo'lgani uchun ham bag'ri ifloslik va kirga to'la hayot uni sig'dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo'lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo'y havosida nafasi bo'g'iladi. Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham romanga qanday kirib kelgan bo'lsa, shundayligicha qoladi. Zebining bu holatiga biz taqdir-dosh, qismat-dosh, dard-dosh bo'lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsiz bo'lishiga mamlakatdagi zo'rovonlik ustuvor ekanligidadir. Cho'lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o'zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va olijanob insoniy fazilatlari bilangina emas, ayni paytda xush ovozi bilan barchaning e'tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukumron bo'lgan va ayollar qadri-qimmatini oyoq osti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslarini yanchiladi. Yana huddi shunday ayanchli voqeani misol keltiradigan bo'lsak, Hamza Hakimzoda Niyoziy (Nihoniy taxallusi bilan ijod qilgan)ning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" asari qahramoni Maryam timsolida ham ko'rishimiz mumkin. Maryam ilmga tashna ayol timsoli. "Yangi saodat" asarida Olimjonning ma'rifat tufayli baxtli hayotga erishuvi va uning o'z baxtidan boshqa kishilarning ham bahramand bo'lishini tasviriyan bo'lsa, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" fojiasida ma'rifatli insonning jaholat va g'afolat zindonidagi fojiali taqdirini ko'rsatishni maqsad qilib olgan. Ushbu asar janrini Hamza "Turkiston maishatidan olingan qiz va kuyov fojiasi" deb ataydi. Dramaturg pyesaning dastlabki sahnasidayoq qahramonlarning o'zlariga munosib bo'lmagan, ular qalbidagi muhabbat gullarini xazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganini ko'rsatadi. Shu tarzda pyesaning avvalidayoq eskicha qarashlar ta'siridagi ota-onalar bilan ulardan ilgari ketgan va o'z zamoniga sig'may qolgan yoshlar o'rtasidagi ziddiyat nish uradi. Voqealar rivojlanishi bilan bu konflikt taranglashib, oxirida kamonning tortilgan yoyidek uchib boradi-da. har ikkala qahramonni - Mahmudxon bilan Maryamxonni halok qiladi. Bunday ayanchli taqdirlar atrofimizda qolaversa ko'z o'ngimizda juda ham ko'p uchraydi.

Xulosa

Shunday qilib, jadid adabiyotida ayollar timsoli o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Ayollarning erk-ozodligi, ilm-ma'rifatga qiziqishi, ota-onasi ra'yidan chiqolmay taqdir hukmiga bo'yin egishi asarlarda bir-biriga qarama-qarshi konflikt tarzda jadid adabiyoti mafkurasini yoritib bera oldi. Jadidchilarning kichik-kichik hikoyalaridan tortib, katta janrdagi barcha asarlarida, barcha-barcha ma'rifatparvar ijodkorlar ijodida ayollar timsoli o'ziga xos mavzuga aylana oldi. O'sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ayollarni qul sifatida baholash, ayollarni nazir sifatida taqdim etish, ularni o'z erkidan, ilm-ma'rifatdan yiroq qilish holatlari ko'plab uchrab turishi jadid adabiyotida chinakam mavzuga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ACHILOVA, E. (2021). O„TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BADIY PSIXOLOGIZM MUAMMOSI. “XALQ TA'LIMI”, 5(1), 88-91.
2. Achilova, E. S. (2022). ARTISTIC PSYCHOLOGY ON THE EXAMPLE OF THE WORK “SPRING DOES NOT RETURN”. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1991-1994
3. Tojiboyeva, G. A. (2022). XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA BUXORODA IJTIMOYIY-IQTISODIY, SIYOSIY MADANIY HAYOT, JADIDCHILARGA QARSHI MA“NAVIY HAMDA JISMONIY KURASH. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(5), 590-593.
4. . Hikmatov, H. S. (2022). Recommendations for writing test speaker in the 9 class. *Экономика и социум*, 3(94), 48-52.